



## ZULFIYANING HAYOTI VA IJODIDAGI O'ZIGA XOSLIK

**Suyunova Marjona**

*Jizzax Davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 1 - kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Zulfiya Isroilovanning hayoti va ijodi hamda go'zal qalb sohibasi, sadoqat kuychisi deya nom olgan shoira haqida ma'lumotlar berilgan. Uning she'rlarida o'ziga xoslik, vafodorlik, sadoqat tuyg'ularining aks etgani haqida bayon qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *asar, ijod, bahor, tuyg'u, sadoqat, vafo, mehnatsevarlik, sog'inch, sevgi*

### **KIRISH**

Zulfiya ijodi, u yaratgan poetik asarlar hozirgi o'zbek she'riyatida muayyan ahamiyatga molikdir. Shoira Zulfiya ijodida xotin-qizlar mavzusining ko'p jihatlari teran yoritilishi, sevgi va hijron motivlarining haqqoniy badiiy tadqiq etilishi, tinchlik, xalqlar do'stligi g'oyalarining ancha ta'sirchan tarannum etilishi tahsinga sazovor. Ma'lumki, Zulfiya tomonidan yaratilgan asarlarida realistik tasvir tamoyillari kuchayganligi hamda poetik obrazlar olami kengayganligini ko'rsatadi. O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolaridan biri san'atkorning o'ziga xos, betakror badiiy olamini o'rganish bo'lib, bu masalaning teran atroflicha tadqiq qilinishi yozuvchining individual mahoratini ko'rsatishga, uning adabiyotimiz taraqqiyotidagi o'rnini belgilashga xizmat qiladi. Zulfiyaning poetik fikrlash tarzini jiddiy o'rganish, uning asarlaridagi obraz va obrazlilikning tabiati, xarakterini yana ham to'laroq ochish o'zbek she'riyatidagi katta bir turkum asarlar mohiyatini tushunishga imkon beradi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Zulfiya Isroilova – taniqli va iqtidorli o'zbek shoirasi. Yorqin rassom, oddiy inson qalbini o'tkir his qilgan – mehnatkash, Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavor kurashgan ayol. Zulfiya she'riyatining nufuzi – bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o'ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridadir. O'zbek xalqining atoqli va ardoqli vakili, taniqli jamoat arbobi, xalqaro tinchlik uchun kurash jarchisi Zulfiya Isroilova xalqaro “Nilufar” , Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofatlari sohibasidir.

Zulfiyaxonim Isroilova 1915-yili Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan. Avval boshlang'ich maktabda, so'ng xotin – qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935-1938-yillarda O'zbekiston fanlar akademiyasining til va adabiyot instituti aspiranturasida o'qigan. Shundan keyin turli nashriyotlarda



ishlagan. 1935-yildan 1980-yilgacha, qariyb o‘ttiz tilga yaqin respublikamizda keng tarqalgan “Saodat” nomli xotin – qizlar jurnalida bosh muharrir bo‘lgan. Zulfiyaxonim Isroilova Hamid Olimjon bilan turmush qurgan. 1932 yil 17 yoshni qarshi olganida, uning “Hayot sahifalari” nomli ilk she‘riy to‘plami omma yuzini ko‘rdi. Bular — yoshlar, do‘stlik, inson qalbining go‘zalligi haqidagi she‘rlar edi. So‘ngra, she‘rlari, dostonlari va hikoyalari e‘tirof qilinib, turli nashrlarda alohida kitoblar ko‘rinishida chop etila boshladi. 1938 yildan u turli yirik nashriyotlarda ishlaydi, respublika va respublikalar aro har xil tashkilotlar a‘zosiga aylanadi. Mashaqqatli urush yillari Zulfiyaning iqtidori butunlay ravnaq topadi va o‘ta yorqin tus oladi: uning she‘rlarida vatanparvarning serg‘ayrat ovozi jaranglaydi, Vatani mustaqilligi uchun qo‘liga qurol olib kurashayotganlarga, har kunlik chuqur kurash ortida mashaqqatli mehnati ila frontni barcha kerakli narsalar bilan ta‘minlayotganlarga nisbatan lirik iliqligi seziladi. “Uni Farhod derdilar” she‘rida isyonkor fashistlarga nisbatan nafrat, g‘alabaga ishonch ifodalangan. G‘animga qarshi kurashga chorlov askar-o‘g‘il haqidagi ona qo‘shig‘i, xotini va onasini sog‘ingan jasur frontchi, pahlavon eri uchun qayg‘urayotgan ayolning qayg‘uli xavotiri bilan bog‘lanadi.

Mevaning toti u yetishgan og‘ochga qanchalik bog‘liq bo‘lsa, ijodkorning bitganlari uning shaxsiyatiga ham shunchalik aloqadordir. Sobiq sho‘ro davridagi ijodkorlar orasida Zulfiya she‘riyati shu jihatdan, ayniqsa, ajralib turadi. Uning nozik chizgilar, go‘zal tashbihlar bilan bir vaqtda “inson ruhiyatini g‘ajib tashlay oladigan” ayriliqdan tug‘ilgan tiyiqsiz iztirob, taqdirning notantiligiga po‘rtanavor isyon aks etgan lirikasi shoira shaxsiyati va ruhiyatidagi inja manzaralardir, deyish mumkin. Zulfiya ijodida hijron, sadoqat to‘g‘risidagi she‘rlar salmoqli o‘rin egallaydi. Bu – tabiiy hol. Negaki, u o‘zining ikki kishi uchun yashalgan uzoq umri davomida ayriliqning ellik ikki yillik yo‘lini bosib o‘tib, hijron kuychisi va sadoqat timsoliga aylandi. Shoiraning nihoyasiz ayriliqning hasratlari aks etgan she‘rlarida badbinlik, umidsizlik, noshukurlik, so‘ngsiz qayg‘uga asirlik tuyg‘ulari yo‘q. Uning hijronzada she‘rlarida suyguvchi, suygani bois ayriliqdan qattiq kuyguvchi, ammo hayotdagi yorug‘liklarni ko‘ra olguvchi va ko‘rganiga shukronalik qilguvchi shokira ayol sezimlari aks etgan. Zulfiyaning mashhur “Bahor keldi seni so‘roqlab” asarida uning hijron mavzusidagi barcha boshqa she‘rlaridagi kabi kuchli dard, chegarasiz hijron aks etgan. Ulkan insoniy alam, o‘kinchning she‘rga yo‘g‘rilgan samimiy ifodasi she‘rxonning ko‘nglini titratadi. Chunki titragan ko‘ngilning manzarasi o‘qirman ruhiyati va hissiyotini ham titratishi tayin. She‘rda ifoda etilgan shoira, bahor, yel timsollarining bari sog‘inch dardiga muhtalo. Ularning uchalasi ham o‘rik gullariga maftun bo‘lib, bahor yellarini “baxtim bormi deya” so‘roqqa tutgan, shoiranida, bahornida, yelnida yaxshi ko‘rgan jingala sochli xayolchan yigit Hamid Olimjonni birday sog‘inishgan. Bu dard uch qayg‘ukashni bir-biriga yaqinlashtiradi, ularni bir-birini suyashga, bir-birini tuyishga undaydi.



## **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Zulfiyaxonim o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega shoir bo'lishi bilan birga inson sifatida ham shu xalqning barcha oliyjanob xislatlariga ega ayol bo'lgan. Bugun shu maqolani yozish va Zulfiyaxonimni ijodiga chuqurroq nazar solish orqali yana bir karra amin bo'ldimki, o'zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab yo'lni bosib o'tgan bo'lmasin, unda bir qator tom ma'nodagi ijodkorlar etishib chiqqan va ularni ichidagi porloq yuzlardan biri bu Zulfiyaxonim bo'lgan. Bugungi istiqloq kunlarida ularning ijodlari yangi qirralari bilan namoyon bo'lmoqda. Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi barcha xotin-qizlar uchun ibrat. Negaki, uning hayotidagi mehnatsevarligi, doimo olg'a intilishi, sevgi bobida sadoqatli yor ekanligi, badiiy ijod borasida tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot qiyinchilik larida esankiramasligi, erishilgan yutuqlar oldida o'zini yo'qotmasligi har qanday qiz yoki ayol qalbida havas uyg'otadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sultonova M., Ijod sahifalari, Toshkent, 1975;
2. Zulfiya [bibliografiya], Toshkent, 1977;
3. Sultonova M., Zulfiya, Toshkent, 1985;
4. Ibrohimov M., Quyoshli she'riyat ijodkori, Toshkent, 1986;
5. Ehtirom [nashrga tayyorlovchilar: Rahima Shomansurova, Ra'no Rahmonova], Toshkent, 1995.
6. Naim Karimov. m. G. Gulyama, 1983.
7. Qayumov L. Shoir Zulfiya. Toshkent, O'zadabiynashr, 1965.
8. Mirvaliev S. O'zbek adiblari. Toshkent: Yozuvchi", 2000y.
9. Tanlangan asarlar (3 jildli), Toshkent, 1985.